

KICHIK YOSHDAGI BOLALAR ORASIDA ICHAK PARAZITAR KASALLIKLARINING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ibraximova H.R

Nurllayev R.R

Matyaqubova O.U

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Urganch, O'zbekiston

Dolzarbligi: *Aholi orasida parazitlar kasalliklar tarqalganligini aniqlash va o'z vaqtida baholash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki faqat shuni bilgan holatdagina ushbu kasalliklar birlamchi profilaktikasiga to'g'ri yondoshish mumkin [1,6]. O'tkaziladigan klinik-epidemiologik izlanishlar natijalari nafaqat kasalliklar profilaktikasi, balki ularning yaqin va uzoq kelajakda ko'payish tendensiyasi, aholi qatlamlari orasida uchrash darajasi bo'yicha istiqbolni belgilash imkonini beradi [4,7].*

Parazitar kasalliklarning tarqalishi va klinik ko'rinishlari bo'yicha hozirgi vaziyatni tahlil qilib, bolalarda fon holatini shakllanishida gelmintozlar va parazitozlarning ma'lum bir rolini qayd etish mumkin [11,3]. Gelmintlar nafas olish, ovqat hazm qilish, mushaklar, jigar, o't pufagi, taloq, miya, ko'zlar va inson tanasining boshqa organlarida parazitlik qiladi. Bolalikda parazitlar invaziyasi ovqatlanishning surunkali buzilishi, oshqozon-ichak disfunktsiyasi, intoksikatsiya, organizm sensibilizatsiyasi va immun tizimining zaiflashuviga olib keladi.

Jahon miqyosida barcha parazitlarning patologik xususiyati odam immun tizimiga modulyatsion ta'siri bilan ifodalanadi [5,8]. Eozinofiliya, IgE giperproduksiyasi, semiz hujayralar tomonidan mediatorlar chiqarilishi, shilliq gipersekretsiyasi, interleykinlar sintezi parazitlarga qarshi kurashda organizm himoya reaksiyasining bir ko'rinishi bo'lib hisoblanadi [11,15].

Parazitar kasalliklar kuzatilgan bolalar qon zardobidagi IgA, IgM, IgG konsentratsiyalari, yallig'lanishni qo'llovchi va yallig'lanishga qarshi tsitokinlar miqdori disbalansi aniqlangan, parazitlar kasalliklar kechishida ularning IgE miqdori bilan uzviy bog'liqligi isbotlangan, IgG va IgE [2,14] oshishi ushbu bemor bolalar immun statusini baholashda immunologik va allergik mezonlar, IL-4 oshishi differensial-diaagnostik mezon sifatida tavsiya etilganligi, parazitlar infeksiyalar tarqalishining tibbiy-ijtimoiy jihatlarini o'rganish orqali bolalarning parazitlar kasalliklar haqidagi bilim darajasi pastligi isbotlangan. Bolalarda kechadigan parazitlar kasalliklarda immunologik va allergologik xususiyatlarni aniqlash kasallikni davolash uchun amaliy ahamiyatga ega [9,13]

Tadqiqot natijalari : Yuqoridagilarni inobatga olgan holatda aholi, ayniqsa uning nozik qatlami bo'lgan bolalar orasida parazitlar kasalliklar tarqalishi, ushbu nozologik birliklar uchrash darajasi, ularning klinik kechish xususiyatlari hamda immuno-allergologik holati bilan bog'liqlikda o'rganish zaruratini uyg'otadi hamda ushbu tadqiqotlar dolzarbligini belgilaydi.

Yuqorida qo'yilgan masalalarga oydinlik kiritish maqsadida yangi koronavirus infeksiyasi pandemiyasigacha va uning davrida bolalar orasida parazitarni kasalliklarning uchrash darajasi qiyosiy o'rganildi. Buning uchun 2019-2021 yillarda bolalar orasida parazitarni kasalliklar uchrashining ekstensiv va intensiv ko'rsatkichlari aniqlandi.

Xorazm viloyatida muqim istiqomat qiladigan 0-14 yoshli bolalar orasida parazitarni kasalliklar uchrash darajasining yillar kesimida uchrash darajasi ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan. Ushbu yosh kategoriyasida ham o'zgarishlar katta yoshlilar ko'rsatkichlariga o'xshash bo'lib, o'zgarishlar tendensiyasi bir biriga yaqin.

O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishining keyingi bosqichida parazitarni kasalliklar aniqlanish darajasi o'rganildi va tahlil qilindi. Buning uchun oxirgi yillar davomida (2018-2021 yillar) parazitarni kasalliklarning an'anaviy tashhisot usullari yordamida aniqlanishi va olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

1-jadval
0-14 yoshli bolalar orasida parazitarni kasalliklar uchrash darajasining qiyosiy ko'rsatkichlari

Nozologik birliklar	Yillar					
	2019 yil		2020 yil		2021 yil	
	Mut	Har 100 ming aholiga	Mut	Har 100 ming aholiga	Mut	Har 100 ming aholiga
Askaridoz	10	2,0	18	3,4	30	5,5
Enterobioz	2158	421,3	1991	379,3	2861	520,1
Gimenolepidoz	52	10,2	56	10,7	58	10,6
Exinokokkoz	5	1,0	0	0	7	1,3
Teniarinxoz	25	4,9	21	3,9	20	3,6
Leyshmanioz	0	0	1	0,2	7	0,2

Aniqlanishicha, oxirgi 4 yil davomida o'tkazilgan IFA tekshirishlar natijasida parazitarni kasalliklar qo'zg'atuvchilariga qarshi antitelolar titri yuqoriligini ko'rsatuvchi 2240 ta musbat natija kuzatildi, unda asosan 6 ta parazitarni kasalliklar shu usul natijasida tasdiqlandi - askaridoz, lyamblioz, opistorxoz, toksokaroz, trixinyellyoz, exinokokkoz.

Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan. Undan ko'rinib turibdiki, IFA yordamida tashhis qo'yishda eng ko'p aniqlangan parazitarni kasallik bu lyamblioz bo'lib, barcha laborator tashhislarining $59,20 \pm 0,86\%$ ini ($n=1326$) tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich boshqa aniqlangan parazitarni kasalliklar qo'zg'atuvchilari yig'indisidan ko'pligi aniqlandi. IFA yordamida aniqlanish ko'rsatkichi bo'yicha keyingi o'rinlarda askaridoz, exinokokkoz va opistorxoz bo'lib, mos ravishda barcha o'tkazilgan laborator tashhislarining o'rtacha $21,34 \pm 0,24\%$ ($n=478$), $13,34 \pm 0,72\%$ ($n=299$) va $3,71 \pm 0,40\%$ ini ($n=83$) tashkil etdi.

Yuqorida keltirilgan har to'rttala parazitarni kasallik barcha aniqlangan parazitarni kasalliklar laboratoriya tashhisining o'rtacha $96,25\%$ ini tashkil etdi. Bunday holat

mintaqamiz bo'yicha shu kasalliklarning ko'p tarqalganligi, binobarin laborator usulda ko'p aniqlanishini ko'rsatdi.

2-jadval

Aholi orasida IFA usuli yordamida tashhislangan parazitlar kasalliklar aniqlanishi ko'rsatkichlari

Parazitlar kasalliklar	Aniqlanish parametrlari	
	Mutloq sonlarda	Nisbiy sonlarda (%)
Lyamblioz	1326	59,20±0,86
Askaridoz	478	21,34±0,24* ↓
Exinokokkoz	299	13,34±0,72* ↓
Opistorxoz	83	3,71±0,40* ↓
Trixinellyoz	38	1,70±0,27* ↓
Toksokaroz	16	0,71±0,18* ↓

Yuqorida keltirilgan uchta parazitlar kasalliklardan tashqari IFA yordamida yana trixinyellyoz va toksokaroz ham aniqlandi - mos ravishda 1,70±0,27% (n=38) va 0,71 ± 0,18% (n=16). Ushbu parazitlar kasalliklarning kam miqdorda laborator usulda tashhislanishi ularga e'tibor qaratishga xojat yo'q degani emas, balki ular davosi va profilaktikasini doimo mukammallashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Shunday qilib, parazitlar kasalliklar yoki invazyalar laboratoriya tashhisida IFA yordamida tashhis quyish eng ishonchli usullardan biri ekanligi yana bir bor isbotlandi. Parazitlar kasalliklar orasida lyamblioz (59,20%), askaridoz (21,34%), exinokokkoz (13,34%) va opistorxozlarning (3,71%) ko'p uchrashi ushbu mintaqa uchun xos xususiyat sifatida talqin qilindi. Trixinellyoz (1,70%) va toksokarozlarning (0,71%) kam miqdorda aniqlanishi ular orasida kam uchrashini ko'rsatsada, boshqa parazitlar kasalliklardan kam e'tibor qaratmaslik zarurligini e'tirof etamiz.

O'tkazilgan tadqiqotlarning keyingi bosqichida parazitlar kasalliklar laboratoriya tashhisida muhim o'rin tutuvchi najas tekshiruv natijalarini keltirib o'tamiz. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Najas tekshirishi yordamida laborator tasdiqlangan parazitlar kasalliklar aniqlanish ko'rsatkichlari

Parazitlar kasalliklar	Aniqlanish parametrlari	
	Mutloq sonlarda	Nisbiy sonlarda (%)
Lyamblioz	670	53,95±1,21
Gimenolepidoz	390	31,40±1,42* ↓
Enterobioz	135	10,87±1,15 * ↓
Teniarinxoz	47	3,78±0,54* ↓

Eslatma: * - lyamblioz ko'rsatkichlariga nisbatan ishonchlilik darajasi; ↓ - o'zgarish yo'nalishi.

Xulosa: Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, najas tekshiruvi natijasida ko'p aniqlangan parazitlar kasalliklar lyamblioz ($53,95 \pm 1,21\%$, $n=670$) va gimenolepidoz bo'lib, jami 390 holatda ($31,40 \pm 1,42\%$) aniqlandi. Shu sababli ushbu parazitlar kasallikni yanada chuqurroq o'rganish zarur, chunki ularning parazitlar kasalliklar orasida uchrash darajasi bo'yicha o'zni beqiyos ekanligi aniqlandi.

IFA yordamida lyamblioz kasalligining eng ko'p aniqlanganini inobatga olsak, ushbu patologiya davosi va profilaktikasiga munosabat butkul boshqacha bo'lishi lozimligini ko'rsatdi, ayniqsa bizning issiq iqlimli mintaqamizda.

Boshqa parazitlar kasalliklar qatori najas tekshiruvi natijasida ko'p aniqlangan kasalliklardan biri enterobioz bo'lib, ushbu laboratoriya usuli yordamida tashhislangan patologik holatlarning 1/5 qismining tashkil etishi bilan ajralib turdi - mos ravishda 135 holat ($10,87 \pm 1,15\%$).

Teniarinxoz ushbu laboratoriya usuli yordamida boshqalarga nisbatdan kam aniqlangan bo'lsada (47 xolat, $3,78 \pm 0,54\%$) parazitlar kasalliklar ichida aholida kam deb bo'lmaydi. Shunday qilib, parazitlar kasalliklar laboratoriya tashhisida muhim o'rin tutuvchi najas tekshiruvi natijasida bir qancha parazitlar kasalliklar tashhislandi, ular orasida ko'p uchragani lyamblioz ($53,95\%$), gimenolepidoz ($31,40\%$) va enterobioz ($10,87\%$) ham muhim o'rin egallagani ko'rinib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳамида Рустамовна Ибраҳимова ПАРАЗИТАР КАСАЛЛИКЛАР ТАШҲИСЛАНГАН ТУРЛИ ЁШДАГИ ОДАМЛАРДА ИММУН СТАТУСИГА ТАВСИФ // Academic research in educational sciences. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/parazitlar-kasalliklar-tash-islangan-turli-yoshdagi-odamlarda-immun-statusiga-tavsif>

2. Ойша Уриновна, М. ., Шохиста Сабировна, . М. ., Ҳамида Рустамовна, . И., & Руслан Рустамбекович, Н. . (2022). КЛИНИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ ТУБЕРКУЛЕЗА У БОЛЬНЫХ ГЕПАТИТОМ В. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 565–568. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2405>

3. Ibrakhimova H. R. et al. THE PREVALENCE OF PARASITES IN THE CHILD POPULATION WITH THE DEVELOPMENT OF FUNCTIONAL PATHOLOGY OF ORGANS //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 1-5.

4. Masharipova Sh.S, Ibrakhimova H.R, & Nurllayev R.R. (2023). A METHOD FOR OBTAINING PRECIPITATING SERUMS FOR THE DETECTION OF HUMAN SEMINAL FLUID USED IN THE STUDY OF PHYSICAL EVIDENCE IN FORENSIC BIOLOGICAL LABORATORIES. World Bulletin of Management and Law, 19, 42-44. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2119>

5. Ibrakhimova Hamida Rustamovna. (2022). DEGREE OF CLINICAL SYMPTOMS IN CHILDREN WITH PARASITIC DISEASES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 273–277. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/2822>

6. Шохиста Сабиловна, М., Икром Ахмеджонович, А. ., Сирож Эрназарович, С. ., & Дилфуза Кадамовна, А. . (2022). ТЕЧЕНИЕ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ НА ФОНЕ ГЕПАТИТОВ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 573–577. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2409>

7. Bakiyev B.R, & Ibrakhimova Kh.R. (2023). THE SPECIALITY OF PATHOGENETIC BASES AND PREVALENCE OF PARASITIC INFECTIONS IN CHILDREN: REVIEW . *Scientific Impulse*, 1(9), 1161–1168. Retrieved from <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/8093>

8. Ibrakhimova H. R. et al. THE PREVALENCE OF PARASITES IN THE CHILD POPULATION WITH THE DEVELOPMENT OF FUNCTIONAL PATHOLOGY OF ORGANS // *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 1-5.

9. Юсупов Шавкат Рахимбоевич, Абдуллаева Дилфуза Кадамовна, Машарипова Шохиста Сабиловна, Матякубова Ойша Уриновна Применение пектина в комплексной терапии при острых кишечных инфекциях // *Вестник науки и образования*. 2020. №5-2 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/primenenie-pektina-v-kompleksnoy-terapii-pri-ostryh-kishechnyh-infektsiyah> (дата обращения: 30.10.2023).

10. Ибрахимова Хамида Рустамовна, Нурллаев Руслон Рустамбекович, Артиков Икром Ахмеджанович Влияние паразитарных болезней на особенности развития туберкулеза у детей, проживающих в Хорезмской области // *Наука, техника и образование*. 2019. №9 (62). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-parazitarnyh-bolezney-na-osobennosti-razvitiya-tuberkuleza-u-detey-prozhivayuschih-v-horezmskoj-oblasti> (дата обращения: 30.10.2023).

11. Masharipova Shokhista Sabirovna, & Masharipov Sobir. (2023). UDC: 619:616.995.132.6 IMMUNE STATUS OF ADULTS AND CHILDREN WITH AN ALLERGIC BACKGROUND DIAGNOSED WITH ENTEROBIOSIS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(14), 24–28. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/11911>

12. Masharipova Sh.S, Ibrakhimova H.R, & Nurllayev R.R. (2023). A METHOD FOR OBTAINING PRECIPITATING SERUMS FOR THE DETECTION OF HUMAN SEMINAL FLUID USED IN THE STUDY OF PHYSICAL EVIDENCE IN FORENSIC BIOLOGICAL LABORATORIES. *World Bulletin of Management and Law*, 19, 42-44. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2119>

13. Sabirovna, M. S., & Sobir, M. (2023). UDC: 619: 616.995. 132.6 IMMUNE STATUS OF ADULTS AND CHILDREN WITH AN ALLERGIC BACKGROUND DIAGNOSED WITH ENTEROBIOSIS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(14), 24-28.

14. Садуллаев С.Е., Машарипова Ш.С., Машарипов С. (2023). КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ПНЕВМОНИИ, АССОЦИИРОВАННОЙ С COVID-19, У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА. *Международный журнал образования, социальных и гуманитарных наук. Finland Academic Research Science Publishers*, 11(9), 851–856. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8411154>

15. Шохиста Сабировна, М., Икром Ахмеджонович, А. ., Сирож Эрназарович, С. ., & Дилфуза Кадамовна, А. . (2022). ТЕЧЕНИЕ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ НА ФОНЕ ГЕПАТИТОВ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 573–577. извлечено от <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2409> обращения: 30.10.2023).